

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

**O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX TA'LIM TIZIMIDAGI
O'ZGARISHLAR: UNING JAMIYATSHUNOSLIK FANI DOIRASIDA O'QITILISHI
(1925–1934) YILLAR**

Qodirova Ra'no Mamirjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası tayanch doktoranti

Ranoimron16@gmail.com +998905637078

[ORCID ID-0000-0003-4572-2528](https://orcid.org/0000-0003-4572-2528)

Annotatsiya: Mazkur maqola 1930-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. O'tgan asrning 20-30-yillarida sovet davlatida ta'lim tizimida, xususan tarix o'qitish sohasida mafkuraviy g'oyalarni maorif soxasida qo'llash g'oyasi ustuvor bo'lgan. Xuddi shu yillarda maktab tarix ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uning yangi maqsadli tizimini ishlab chiqish zarur edi..

Kalit so'zlar: O'zSSR XKS, DYOM, dehqon yoshlari maktablari, Akmal Ikromov, maorif xalq komissarligi, N.E.Bauman, RSFSR maorif xalq komissarligi, A.I.Gukovskiy, O.V.Traxtenberg, N.M.Nikolskiy

**ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В
ШКОЛАХ УЗБЕКСКОЙ ССР: ЕЕ ПРЕПОДАВАНИЕ В РАМКАХ
ОБЩЕСТВОВЕДЕНИЯ(1925 –1934 гг.)**

Аннотация: Данная статья посвящена анализу особенностей преподавания истории в школах Узбекской ССР во второй половине 1930-х годов. В 20-е и 30-е годы прошлого века идея использования идеологических идей в сфере образования была приоритетной в системе образования Советского государства, особенно в области преподавания истории. В эти же годы пришлось коренным образом изменить систему исторического образования школы, разработать ее новую целевую систему.

Ключевые слова: Наркомпрос УзССР, ШКМ, школы крестьянской молодежи, Акмаль Икрамов, Н.Е. Бауман, Наркомпрос РСФСР, А.И.Гуковский, О.В.Трахтенберг, Н.М.Николский

CHANGES IN THE SYSTEM OF HISTORICAL EDUCATION IN SCHOOLS OF THE UZBEK SSR: ITS TEACHING WITHIN THE FRAMEWORK OF SOCIAL SCIENCE (1925 – 1934)

Abstract: This article is devoted to the analysis of the peculiarities of teaching history in schools of the Uzbek SSR in the second half of the 1930s. In the 20s and 30s of the last century, the idea of using ideological ideas in the field of education was a priority in the education system of the Soviet state, especially in the field of teaching history. During these years, it was necessary to radically change the system of historical education in schools, to develop its new target system.

Keywords: Commissariat of Education of the Uzbek SSR, SPY, schools of peasant youth, Akmal Ikramov, N.E. Bauman, Commissariat of Education of the RSFSR, A.I.Gukovskiy, O.V.Traxtenberg, N.M.Nikolskiy

KIRISH.

Mamlakatimizda umumta'lim maktablarini, xususan, tarix ta'lim tizimini shakllantirish bo'yicha mavjud tajribaga to'xtalib o'tish dolzarb muammodir. Biz maorif sohasida sovet Rossiyasi tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan xulosa chiqarib, kelajakda bu kamchiliklarni bartaraf qilishimiz darkor.

Ayni paytda tarix fanida qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan 1920-30 yillarda respublikamizda xalq ta'limi tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari, o'sha murakkab davrda milliy ta'lim tizimidagi islohotlarni har tomonlama tahlil etish zarur.

Zero aynan shu davrda totalitar g'oya va keskin sinfiy nuqtai nazarga asoslangan ta'limning sovet modeliga asos solindi. Bu muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzuni o'rganish O'zbekiston tarixi fanidagi o'ziga hos bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi. Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarda milliy maorif tizimi tarixini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur ishdagi asosiy adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi sovet davrida yaratilgan adabiyotlar va ikkinchisi arxiv materiallari. Sovet davrida yozilgan adabiyotlardan A.Murodxo'jaev tahriri ostida nashr qilingan Ўзбекистон ССРда халқ маорифи (1924-1945);

Akmal Ikromovning “Уч жилдлик танланган асарлар . I жилд.” Мактаб қурилиши масалалари: 1928 йил 4 майда Ўзбекистон КП (б) МК тарғибот бўлимида халқ маорифига бағишланган йиғилишдаги нутқи; О‘зССР МХК мактаблар бoshqarmasi tahriri ostida nashr qilingan “Бошланғич мактаб программалари”, “ История образования в архивных источниках (По материалам ЦГА РУз). Сборник документов”; “Народное образование в СССР. Сборник документов. 1917-1973 гг.”; kabi adabiyotlardan foydalanildi.

Biz tadqiq qilgan mavzuga oid asosiy manba bu arxiv materiallari hisoblanadi. Ishda asosan O'zbekiston Milliy arxivi, Samarqand viloyat davlat arxivi, Farg'ona viloyat davlat arxivi, Andijon viloyat davlat arxivi, O'zbekiston Respublikasi Prexidenti administratsiyasi

arxivi Farg‘ona filialidan olingan va ilk bor ilmiy muomilaga kiritilayotgan hujjatlarga tayanib ko‘plab yangi ma‘lumotlar keltirilgan.

Mazkur mavzuda o‘rganilayotgan ilmiy maqolada ma‘lumotlarni tizimlashtirish, muammolarni kompleks umumlashtirish, tahlil va davrlashtirish, tarixiylik, xolislik tamoyillari kabilar, shuningdek, solishtirma va kompleks tahlil, davrlashtirish kabi usullardan ham keng foydalanilgan.

NATIJALAR

O‘zbekiston SSR tashkil topgandan so‘ng respublikada sovet maktablari shoxobchasi tez sur‘atlar bilan o‘sa boshladi. Maorif tizimining rivojlanishi respublikada va butun mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq edi. Jumladan, 1925-yilda mamlakatda boshlangan sanoatlashtirish siyosati, 1927-yilda esa qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish vazifasining kun tartibiga qo‘yilishi maorifni rivojlantirish borasida yangi vazifalarni o‘rtaga qo‘ydi, yangi sharoitlarni yuzaga keltirdi. Sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish zarurati chuqur umumta‘lim bilimlar va amaliy ko‘nikmalarga ega ishchi va muxandis-texnik kadrlar hamda agrar soha mutaxassislarini tayyorlashni taqozo etdi. Buning uchun maktab ta‘limi sifatini oshirish talab qilinardi. O‘z navbatida, respublikada yangi sanoat korxonalari, kolxoz va sovxozlarning barpo etilishi va rivojlanib borishi ularning maktablarga homiylik qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

1929-1933 yillarda olib borilgan “Jamoalashtirish” siyosati maktab dasturlarida ham aks etdi. Maktablarda jamiyatshunoslik darsi dastlabki o‘quv yillarida asosan qishloq va shahar o‘rtasidagi munosabatlarni bog‘lashga urg‘u bergan. Bundan tashqari kooperatsiyalar sotsializmga eltuvchi yo‘l sifatida uqtirilgan. 4-o‘quv yiliga kelganda esa Oktabr to‘ntarilishi sovet hokimiyatining tashkil topishi, partiya tarixi haqida mashg‘ulotlar o‘tilgan[3: 2-5 v].

Qishloq sovetlari va asta-sekinlik bilan oyoqqa tura boshlagan kolxozlar yangi maktablar qurilishiga, ularni ta‘mirlash va jihozlar bilan ta‘minlash ishlariga homiylik qilishga jalb etildi. Masalan, 1930/1931-o‘quv yilida Buxoro okrugi Qorako‘l tumanidagi Qoraun qishloq soveti o‘z hududidagi maktablarni ta‘mirlab, mahalliy duradgor ustalar yordamida ularga 36 dona parta, ko‘p sinf doskalari, shkaf va taburetkalar tayyorlab berdi[11; C.42.].

Bu davrda O‘zbekiston hukumati boshlang‘ich maktablar shoxobchasini rivojlantirish bilan bir qatorda, respublikada yetti yillik politexnik ta‘limni joriy etishga ham e‘tibor qaratdi. O‘zSSR XKS tomonidan 1931-yil 1-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekistonda boshlang‘ich ta‘lim sistemasi to‘g‘risida”gi qarorida boshlang‘ich maktab bilan o‘rta maktab o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish vazifasi qo‘yildi. Qat‘iy to‘rt yillik ta‘limga o‘tish boshlang‘ich maktab ishida ana shu jiddiy yetishmovchilikni bartaraf qildi va yetti yillik politexnik ta‘limni joriy etish uchun shart-sharoit yaratdi. Shu vaqtdan boshlab yetti yillik maktablar va o‘rta maktablar faqat katta shaharlarda emas, balki rayon markazlarida, kolxoz va sovxozlarning markaziy qo‘rg‘onlarida ham tashkil etila boshlandi.

1928/1929-o‘quv yilidan e‘tiboran O‘zbekiston SSR maktablari RSFSR maorif xalq komissarligi tomonidan tuzilgan barqaror dasturlar bo‘yicha ishlay boshladilar. Lekin maorif

tashkilotlariga bu dasturlarni ma‘lum darajada respublika sharoitiga moslashtirish huquqi berilgan edi.

Shunday qilib, 30-yillarning boshlariga qadar O‘zbekistonda maktablar tarmog‘i va o‘quvchilar kontingenti o‘sdi, o‘quv-tarbiya ishining mazmuni o‘zgardi. Politexnik ta‘limni joriy etishda, ta‘limni ishlab chiqarish bilan, korxonalar va kolxoz-sovхозlar faoliyati bilan bog‘lashda, shuningdek, o‘quvchilar bilan olib borilgan sinfdan tashqari ishlarda muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi.

Lekin, maktablar faoliyatida jiddiy nuqsonlar mavjud bo‘lgan. Ular orasida eng asosiy kamchilik shundan iborat ediki, maktablar o‘quvchilarni institut va texnikumlarga kirishga tayyorlashdek vazifani uddalay olmadi. Bunga sabab shuki, kompleks dasturlar amal qilayotganligi bois maktablar o‘z bitiruvchilarga alohida fanlar bo‘yicha yetarli hajmda umumiy ma‘lumot bera olmadi. Mamlakatda ziyoli kadrlar, xususan, texnik intelligentsiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etgan sharoitda bu kamchilikni bartaraf etish zarur edi.

Maktab o‘quvchilariga chuqur bilimlar berishning muhim sharti – bu fanlar bo‘yicha mukammal darsliklar yaratish bo‘lgan. VKP (b) Markaziy Komitetining “Boshlang‘ich va o‘rta maktablar uchun darsliklar to‘g‘risida”gi 1933-yil 12-fevral qarori maktablar faoliyatini yaxshilash uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Qarorda Maorif xalq komissarligining barqaror darsliklarni e‘tirof etmaslik, darsliklar yaratish o‘rniga “darslik-jurnallar”, “ish kitoblari” deb atalgan adabiyotlar chiqarishga berilib ketganligi tanqid qilindi [12; C. 165].

NATIJALAR

Sovet maktablari shoxobchasining kengayishi va rivojlanib borishi maorif tizimi moddiy-texnika bazasining mustahkamlash bilan bog‘liq edi. XX asrning 20–30-yillarida maktablar uchun asosan davlat tomonidan musodara qilingan badavlat shaxslarning uylari ajratilar edi. Bundan tashqari, murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoitga qaramay, yangi maktab binolari qurish ham yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 1917–1927-yillarda hozirgi O‘zbekiston hududida 292 ta boshlang‘ich hamda 19 ta yetti yillik va ikkinchi bosqich maktablar uchun binolar qurildi. Butunittifoq maktab ro‘yxati o‘tkazilgan vaqtda (1927-yil 15-dekabr) O‘zbekiston SSRda 1 825 ta maktab borligi qayd etildi [1; B.41]. O‘zbekistonda ta‘lim sohasiga katta e‘tibor berilganligini shundan ham bilsa bo‘ladiki, respublika budjetining 33 foizi maorif tizimiga sarflanayotgan edi [10; C. 329].

Ammo ko‘p maktablarda o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun qulay sharoitlar mavjud emas edi. Qishloq maktablari uchun odatda paxsa, guvalak yo xom g‘ishtdan qurilgan 1 ta yo 2 ta, ayrim hollarda esa 3 ta yo 4 ta xona (sinf) dan iborat binolar qurilardi. Aksariyat maktab binolari ko‘rimsiz bo‘lib, jihozlar yetishmasdi. O‘rta hisobda shahardagi boshlang‘ich maktablarga 55–60 nafar, qishloq maktablariga esa 30–40 nafar o‘quvchi to‘g‘ri kelardi. Qishloq maktablarida dastlab asosan, birinchi va ikkinchi sinflar bo‘lgan xolos, hatto uchinchi sinflar hali juda kam edi.

Buning ustiga, maorif xalq komissarligi tizimida 1926-yildan boshlab dehqon yoshlari maktablari (DYoM) paydo bo‘ldi. Ular qishloq joylarda noto‘liq o‘rta maktablar vazifasini

bajarishi kerak edi. Mazkur maktablarda umumta’lim fanlarni o‘qitishdan ko‘ra, o‘quvchilarni qishloq xo‘jaligida agrotexnika usullarining qo‘llanilishi bilan tanishtirib borishga asosiy e’tibor berildi. Farg‘ona viloyat davlat arxivining 31-fondida dehqon yoshlar maktablari uchun mo‘ljallangan va 1931-yilda tasdiqlangan dasturda biologiya va qishloq ho‘jaligi bilan bog‘liq fanlar ustivor mavqega ega. Ayni vaqtda unda jamiyatshunoslik va tarix fanlariga ham ma’lum miqdorda soatlar ajratilgan[5; 1-87 v].

DYoM qishloq yoshlarining agronomiya sohasidagi bilimlarini o‘shida ijobiy rol o‘ynadi. Lekin bu maktablarda o‘quvchilarning fan asoslarini egallashlariga yetarli e’tibor berilmasdi, ularning bevosita ziroatchilik sohasida mehnat qilishlariga urg‘u berildi. Hatto, darslar ularning mehnat qilishlariga “xalaqit” bermasligi uchun, MXK o‘zining joylardagi maorif bo‘limlariga yuborgan maktubida kechki DYoMlarni tashkil etishni taklif etdi[4;19,23 v]. Bunday maktab o‘quvchilari kechqurunlari o‘qib, kunduzi “bemalol” dalada mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lardilar.

Maorif tizimidagi yana bir kamchilik shundan iborat ediki, shaharlarda ham, qishloqlarda ham qizlarni maktabga jalb etish ko‘rsatkichlari o‘g‘il bolalarga nisbatan ancha past bo‘lgan. 1924/1925-o‘quv yilida maktablarda 34 735 nafar qiz o‘qigan; ular barcha o‘quvchilarning 26,1 foizini tashkil etgan[8; B-12].

Respublikada konfessional maktablar faoliyatiga ruxsat berilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston SSR MIQ va XKS maxsus komissiya tuzib, ularning faoliyatini qattiq nazorat ostiga oldi. Komissiyaga eski diniy maktablarni ochishga ruxsat berish va ularning faoliyatini to‘xtatish vakolati berildi. Komissiya ruxsatisiz bunday maktab ochgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilandi. Konfessional maktablarni davlat va jamoat tashkilotlari hisobidan mablag‘ bilan ta’minlash man etildi [11; C. 30].

Ammo “isloh qilingan” ayrim maktablarda sobiq jadidlar dars berganliklari sababli ularda mashg‘ulotlar yangi usul maktablari dasturi bo‘yicha olib borilgan. O‘zbekiston kompartiyasi (bolsheviklar) MK mas’ul kotibi Akmal Ikromov 1927-yil 4-iyunda Markaziy Komitetning VI plenumida qilgan ma’ruzasida shunday maktablar faoliyatini tahlil qilib, quyidagi dalillarni keltirgan edi. “Isloh qilingan” maktablar o‘quv rejasi uch yilga mo‘ljallangan bo‘lib, birinchi yilda alifbo, o‘qish va yozish, shuningdek, gigiyena va mamlakatshunoslik (vatanshunoslik) o‘rganilgan. Uchinchi o‘qish yilida esa geografiya, tarix va ilohiyot singari fanlar, ya’ni ma’ruzachining ta’biri bilan aytganda, “millatchilik bilan yo‘g‘rilgan jadid fanlari” o‘tilgan[11; C. 289-290].

Garchi 1927-yilga kelib kompleks dasturlar ma’lum darajada takomillashtirilgan bo‘lsa-da, ammo ularning metodologik va uslubiy kamchiliklari bartaraf etilmadi. Maorif xalq komissarligining yo‘l qo‘ygan xatolaridan yana biri shundan iborat ediki, boshlang‘ich maktablar, ishchi va dehqon yoshlar maktablari uchun mo‘ljallangan kompleks-loyihaviy dasturlarda umumta’lim fanlariga ajratilgan soatlar kamaytirilib, ijtimoiy-foydali mehnatga berilgan vaqt ko‘paytirildi[9; C. 239.].

E’tirof etish lozimki, 20-yillarda yaratilgan tarix va jamiyatshunoslik fanlariga oid dasturlar, ishchi kitob va darsliklar o‘zining g‘oyaviy-siyosiy mazmuni jihatdan inqilobdan avvalgi tarixiy adabiyotlarga nisbatan ancha oldinga qo‘yilgan qadam edi. Eng muhimi – o‘quvchilar darsda podsholar va sarkardalar tarixini emas, balki xalq ommasi tarixini o‘rgana boshladilar. Darslik va ishchi kitoblarning bezalishida ham ijobiy o‘zgarishar kuzatildi, ularga rasmlar ilova qilindi. Har bir paragrafning oxirida o‘quvchilarning mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar berildi.

XX asr 20-yillarida maorif organlari ta’limni kundalik hayot bilan, mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda olib borishga, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni jamiyat hayotiga, siyosiy bayramlarni o‘tkazishga jalb etishga katta e’tibor berdilar. Masalan, O‘zSSR MXKning 1926-yil 15-oktabrda okrug, shahar va rayon xalq maorifi bo‘limlariga yuborgan xatida Oktabr inqilobining 9 yilligi munosabati bilan o‘tkaziladigan tantanali yig‘ilishlarga barcha o‘qituvchi va o‘quvchilarni jalb qilish, maktablarni shiorlar va plakatlarni bilan bezash, ushbu sanaga bag‘ishlangan ma’ruzalar o‘qish, she’rxonlik va xor havaskorligi chiqishlarini tashkil etishni taklif etdi[7; 28 V].

30-yillarning boshlarida maorif tizimida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etdi. VKP (b) Markaziy Qo‘mitasining 1931-yil 5-sentabrda qabul qilgan “Boshlang‘ich va o‘rta maktab to‘g‘risida”gi qarori va boshqa rasmiy hujjatlarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar, jumladan, “erkin tarbiya nazariyasi”, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligiga haddan tashqari ko‘p e’tibor berish, umumiy ta’limga yetarli baho bermaslik va o‘quv dasturlarning alohida fanlar bo‘yicha tuzilishini inkor etish, ijtimoiy foydali mehnatning ahamiyatiga haddan tashqari yuqori baho berish, sinf-dars tizimini yo‘q qilish va pedagogik jarayonda o‘qituvchining rolini pastga urish kabi illatlar keskin tanqid qilindi[2; 51-54 B].

20-yillarning ikkinchi yarmi – 30-yillarning boshlarida maorif xalq komissarligi maktablarda tarixni alohida o‘quv fani sifatida qayta tikladi, shunga mos ravishda yangi o‘quv reja va dasturlar tuzishga kirishildi. 1931-yildan kompleks-loyiha dasturlari alohida fan dasturlari bilan almashtirildi. Ammo o‘zgarishlar ishchi va dehqon yoshlar maktablarini qamrab olmadi: bu maktablarda o‘quvchilarda ishlab chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish birinchi o‘rinda turardi, umumta’lim va ijtimoiy-siyosiy fanlarni o‘rganish esa hamon ikkinchi darajali vazifa bo‘lib qolaverdi[9; C. 249].

1933-yilning yozida RSFSR maorif xalq komissarligi tarix faniga oid yangi dasturlar va ularga mos ravishda yozilgan darslik kitoblarni tasdiqladi. Yangi dastur va darsliklarning negizini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar to‘g‘risidagi markscha-lenincha ta’limot tashkil etardi. Mualliflar tarixiy materialni bayon etishda xronologik izchillikka rioya qilishga harakat qildilar. Ammo ular M.N.Pokrovskiy maktabiga xos bo‘lgan mavhum sotsiologizmdan butkul voz kecholmadilar. Natijada dastur va darsliklar yana grajdan tarixni emas, balki ijtimoiy hayot shakllarini yoritishga qaratildi[6; 128-V].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, maktablarda tarix alohida fan sifatida o‘tilmay, jamiyatshunoslik fani tarkibida o‘qitildi. Shuning uchun bu yillarda tarixga doir alohida darslik

va o‘quv qo‘llanmalar sanoqli bo‘lib, odatda tarixga oid materiallar jamiyatshunoslik darsligi ichida berilar edi. Bu davrda nashr etilgan tarix darsliklaridan A.I.Gukovskiy va O.V.Traxtenberg hamda N.M.Nikolskiy qalamiga mansub kitoblarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ikkinchi jahon urushiga qadar O‘zbekistonda o‘zbek, rus, uyg‘ur va mahalliy yahudiy tillarida jamiyatshunoslik fani bo‘yicha talay darslik va o‘quv qo‘llanmalar nashr etildi. Ularda tegishli mavzularga mos ravishda jahon va vatan tarixiga doir materiallar berib borildi. Albatta, mazkur darslik va o‘quv qo‘llanmalarining nashr etilishi 1925–1933-yillarda jamiyatshunoslik darslarini o‘quv-uslubiy ta‘minoti jihatidan katta ahamiyatga ega edi.

XX asrning 30-yillarida O‘zbekiston SSRda tarix fani sohasida kuzatilgan pozitiv yangiliklardan biri shu bo‘ldiki, rus, o‘zbek va boshqa mahalliy tillarda jahon tarixi hamda SSSR, O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tarixiga doir ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar, risolalar nashr etila boshlandi. Garchi ular darslik yoki o‘quv qo‘llanma bo‘lmasa-da, ammo bunday adabiyotlarning nashr etilishi tarix o‘qituvchilari va o‘tmishni o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun katta yordam bo‘lganligi shubhasizdir. Shunday kitob va risolalar qatoriga salib yurishlari tarixi, Germaniya, AQSh, Polsha, Eron, Xitoy, Hindiston, Turkiya kabi mamlakatlar tarixiga bag‘ishlangan asarlarni kiritish mumkin.

Ta‘kidlab o‘tilganidek, maktablarda jahon tarixi bilan SSSR tarixi qisman jamiyatshunoslik doirasida o‘rganilgan. Lekin o‘sha davrda “SSSR tarixi” deganda asosan Rossiya tarixi tushunilgan. Maktablarda ittifoqdosh respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston tarixi o‘tilmasdi. Faqat ba‘zi mavzularda ittifoqdosh respublikalar tarixi bilan bog‘liq ayrim epizodlar eslatib o‘tilardi. Bu davrda asosan Rossiya tarixiga doir kitoblar o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilardi. S.Piontkovskiy va M.N.Pokrovskiylarning Rossiya tarixiga bag‘ishlangan asarlari shular jumlasidandir. Ushbu nashrlar o‘quv adabiyot sirasiga kirmasdi, ammo SSSR tarixi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar taqchil bo‘lgan sharoitda ularning o‘zbek tilida nashr etilishi maktablar faoliyatida adabiyotga bo‘lgan ehtiyojini qisman bo‘lsa-da, qondirishga xizmat qildi.

XULOSA

Bu davrda kuzatilgan ijobiy tendensiyalardan biri shundan iborat ediki, o‘zbek va rus tillarida O‘rta Osiyo, shu jumladan O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan kitob va risolalar nashr etila boshlandi. Bu kitob va risolalar partiyaviylik va sinfiylik tamoyillari asosida yozilgan bo‘lib, mualliflar 1917-yil Oktabr to‘ntarilishi, Turkiston Muxtoriyati, istiqlolchilik harakati (“bosmachilik harakati”), Buxoro “xalq inqilobi” kabi voqealarga o‘sha davrda hukmron bo‘lgan kommunistik mafkura nuqtai nazaridan baho beradilar. Ularda ilgari surilgan fikr va konsepsiyalar hozirgi tarix fani xulosalariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Ammo bundan qat’i nazar, o‘sha yillarda jahon tarixi, SSSR tarixi va, xususan, O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan kitob va risolalarning nashr etilishi ijobiy hodisa bo‘lib, ular ta‘lim muassasalarida tarix fanini o‘qitishda, yoshlar va ziyolilarning ilmiy-tarixiy tafakkurini yuksaltirishda ma‘lum rol o‘ynaganligini ta‘kidlash joizdir.

Shu bilan birga, ko‘rib chiqilayotgan yillarda maktab ta‘lim tizimida talay kamchiliklar mavjud edi. Eng asosiy kamchiliklardan biri pedagogik kadrlarning yetishmasligi, ularning tayyorgarlik darajasining pastligi edi. Bundan tashqari, maktab binolari yetishmasligi, jihozlar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining taqchilligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. O‘qituvchilarning bilim darajasi yuqori bo‘lmagan. Xususan, boshlang‘ich ta‘limning ko‘p o‘qituvchilari qisqa muddatli kurslarda tayyorlangan bo‘lib, yetarli bilim va malakaga ega emas edilar. Sinfda ikkinchi yilga qolib ketayotgan va maktabni tashlab ketgan o‘quvchilar ham oz emas edi. Ko‘p maktablar ta‘limni politexnikalashtirish uchun kerakli jihozlar bilan ta‘minlanmagan edi. O‘rta ta‘lim muassasalari sonining ortib borishiga qaramay, ular sotsialistik qurilish talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatiga ega emas edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 15 yil icida Ozbekistan xalq maarifi (1924-1939). – Taskent: OzSSR davlat oquv-pedagogik nashrijoti, 1939. –189 B.
2. Maarf va oqutuc//1931.№7-8.B.51-54
3. Andijon viloyat davlat arxivi (AVDA), R-129-fond. 1-ro‘yxat 207-ish, 2-5-varoq. “Сметы, программы и планы по учебе на 1929/1930 уч.год”
4. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDA), R-131-fond. 1-ro‘yxat 94-ish, 19,23-varoq. “Всем окружным отделам народного образования”
5. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDA), R-131-fond. 1-ro‘yxat 386-ish, 1-87-varoq. “Программа школ колхозной молодежи”
6. O‘zR PAA Farg‘ona viloyat bo‘limi,), R-1-fond. 1 a-ro‘yxat 490-ish, 128-varoq. “Методическое письмо для городской школ политграмотность, свидения о сети политшколы, списки руководителей школ”
7. Samarqand viloyat davlat arxivi (SVDA), R-152-fond. 1-ro‘yxat 85-ish, 1-28-varoq. “Всем окружным отделам народного образования, Копия городским и районным отделениям народного образования. 15 октября 1926 г”.
8. Ўзбекистон ССРда халқ маорифи (1924-1945) / А.Муродхўжаев тахрири остида. – Тошкент: Ўздавнашр, 1949. – 126 б.
9. Бущик Л.П. Очерк развития школьного исторического образования в СССР. – 540 С.
10. Икрамов А. Избранные сочинения в трех томах. Том I. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – 532 С.
11. История образования в архивных источниках.– Ташкент: Янги нашр, 2015. Том II. 1917-1991 гг. – 504 с.
12. Народное образование в СССР. Сборник документов. 1917-1973 гг. – Москва: Педагогика, 1974. – 560 С.